XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 28-iyun VI-61-91-1-0-K/24 Andijon viloyati

Andijon viloyatida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflarini qayta koʻrib chiqish va maʼqullash haqida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4845-son qarorining 4-bandida 2021-yil 1-yanvardan boshlab hududlarda maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari (xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladigan alohida xizmatlar uchun toʻlovlar bundan mustasno) dastlab narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan maʼqullanganidan soʻng tasdiqlanishi belgilangan.

Shunga koʻra, viloyat hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflari Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 12-avgustdagi VI-40-94-1-0-K/22-sonli qarori bilan maʼqullanib, viloyat hokimining 2023-yil 26-iyuldagi 196-1-0-Q/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi Andijon viloyati hududiy filiali 2024-yil 4-fevraldagi 01-01/106-sonli aloqa xati orqali murojaat qilib, Oʻzbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonunining 4-moddasi 16-bandiga muvofiq joriy yilning 1-aprelidan boshlab Soliq kodeksi 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash boʻyicha aholiga koʻrsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka boʻyicha soliq solinishi bekor qilinganligi sababli amalda boʻlgan tariflarga tegishli oʻzgartirish kiritib, qayta tasdiqlanishini soʻragan.

Bu boʻyicha narxlarni tartibga soluvchi organ yaʼni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2024-yil 27-iyundagi 02/01-10-15/836-sonli xulosa xati taqdim etib, maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun amaldagi majburiy toʻlov tariflarini qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan qayta hisoblash maqsadga muvofiqligini maʼlum qilgan.

Viloyatda iqtisodiyot sohalarida va aholi punktlarida hosil boʻladigan maishiy va qurilish chiqindilari bilan bogʻliq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI

1. Oʻzbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi Qonunining 4-moddasi 16-bandiga muvofiq joriy yilning 1-aprelidan boshlab Soliq kodeksi 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash boʻyicha aholiga koʻrsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka boʻyicha soliq solinishi bekor qilinganligi koʻrsatib oʻtilsin.

2. Quyidagilar:

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi Andijon viloyati hududiy filialining 2024-yil 4-fevraldagi 01-01/106-sonli, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-iyundagi 02/01-10-15/836-sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Mazkur Kengash qarorining 1- va 2-bandlarini inobatga olib, viloyat hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflarining narxlari (tariflari) 1-ilovaga muvofiq maʼqullansin.

4. Shu munosabat bilan Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 12-avgustdagi VI-40-94-1-0-K/22-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

5. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov), Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Andijon viloyatidagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish Qoʻmitasi viloyat hududiy boshqarmasi (U.Joʻrayev), Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi Andijon viloyati hududiy filiali (K.Mirzabekov) bilan birgalikda viloyat hududida maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun majburiy toʻlov tariflarining narxlari (tariflari)ni oʻrnatilgan tartibda qoʻllab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

6. Belgilab qoʻyilsinki, mazkur qaror bilan maʼqullangan maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun taklif etilgan majburiy toʻlov tariflarining narxlari (tariflari) viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

7. Viloyat hokimining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi M.Ibrohimov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.Tadjibayev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, (viloyat hokimining tegishli qarori rasman eʼlon qilingandan keyin ikki kundan kechikmay) eʼlon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

8. Ushbu qaror rasmiy nashrda eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” hamda “Sanoat, transport, qurilish,kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish” masalalari boʻyicha doimiy komissiyalari raislari hamda viloyat hokimining oʻrinbosari I.Xolmatov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

ABDURAXMANOV
SHUXRATBEK
KUSHAQBAYEVICH

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining
2024-yil 28-iyundagi
VI-61-91-1-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Hududlarda maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun taklif etilgan majburiy toʻlov tariflarining narxlari (tariflari)

T/r	Hudud toifalari	Qattiq maishiy chiqindilar			
		Aholiga (bir kishi uchun) bir oylik uchun QQS siz (soʻm hisobida)	Aholiga (bir kishi uchun) bir oylikuchun QQS bilan (soʻm hisobida)	Yuridiktashkilotlarga 1 m^3 uchun QQS siz (soʻm hisobida)	Yuridik tashkilotlarga 1 m^3 uchun QQS bilan (soʻm hisobida)
1.	Andijon viloyati hududi uchun	3500	3800	47 500	53 200

Izoh: Oʻzbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi Qonunning 4-moddasi 16-bandiga muvofiq joriy yilning 1 aprelidan boshlab Soliq kodeksining 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash boʻyicha aholiga koʻrsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaganol darajali stavka boʻyicha soliq solinishi bekor qilingan.